



## **BUXGALTERIYA HISOBODA MEHNATGA HAQ TO'LASHNING AMALDAGI TIZIMI (Byudjet tashkilotlari misolida)**

**Turayeva Gulizahro**

*Guliston Davlat Universiteti o'qituvchisi*

**Tilovbekova Aziza**

*Guliston Davlat Universiteti talabasi*

**Tolipova Sarvinoz**

*Guliston Davlat Universiteti talabasi*

**Toshtemirov Ziyodulla**

*Guliston Davlat Universiteti talabasi*

***Annotatsiya:** Maqolada hozirda byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritishni avtomatlashtirilgan buxgalteriya hisobi dasturisiz tasavvur qilib bo'lmasligi. Sababi byudjet tashkilotlarida kunsayin qayta ishlanishi lozim bo'lgan axborot miqdori ortib bormoqda ularni UzASBO dasturida ishlatilishini joriy etilishi va mehnatga haq to'lash schyotlarini joriy etilishi bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

***Kalit so'zlar:** ish haqi, ish haqi tizimi, rag'batlantirish, bazaviy lavozim maoshi, tarif setka, milliy daromad, mehnat miqdori va sifati, ijodiy mehnat, innovatsion iqtisodiyot.*

### **Kirish.**

Byudjet tashkilotlarida ishlovchi xodimlar mehnatiga haq to'lashning amaldagi tizimi, xodimlarni mehnatiga haq to'lashni avtomatlashtirilganligini va shu kunga qadar eng kam ish haqi miqdorlarni oshganligi va ularni UzASBO dasturida ishlatilishini joriy etilishi va mehnatga haq to'lash schyotlarini joriy etilishi Bugungi kundagi dolzarb masaladir..Byudjet tashkilotiga reja asosida mehnat haqi fondi belgilanadi. Mehnat haqi fondi rejadagi va hisobotdagi fondlarga bo'linadi. Vaqtning muayyan davrida xodimlarga mehnat haqi to'lash uchun byudjet tashkilotining xarajatlar smetasida ko'zda tutilgan pul mablag'lari summasi mehnat haqining rejadagi fondi hisoblanadi. Muayyan davr uchun shtatdagi va shtatdan tashqaridagi xodimlarga haqiqatda hisoblangan mehnat haqi summasi mehnat haqining hisobotdagi fondi hisoblanadi. Mehnat haqi qaysi vaqtga to'lanayotganligi, mikdori va bajarilgan ishlarning sifatiga qarab asosiy va ko'shimcha mehnat haqiga bo'linadi. Xodimlarning ishlagan vaqti uchun yoki bajargan ishlarining miqdori va sifati uchun to'lovlar asosiy mehnat haqi hisoblanadi. Xodimlarga qonunda ko'zda tutilgan ishlagan vaqti (ta'til vaqti uchun to'lov, davlat va jamoat vazifalarini bajargan davri uchun to'lov, o'smirlarga imtiyozli soatlari uchun to'lov va boshqalar) uchun to'lovlar qo'shimcha mehnat haqi hisoblanadi.

### **Tahlil va natijalar.**



Byudjet tashkilotlarida xodimlarning ish haqini hisoblashda tashkilotlarda UzASBO dasturi orqali avtomatlashtirilgan tarzda hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2010-yil 17-dekabrda 105-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010-yil 22-dekabrda 2169-son bilan ro'yxatga olingan "Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risidagi yo'riqnoma"ning 285-bandiga muvofiq, ish haqini hisoblab yozish uchun quyidagilar asosiy hujjatlar hisoblanadi: tashkilotning ishga qabul qilganlik, bo'shatganlik va xodimlarni tasdiqlangan shtatlar jadvali hamda ish haqi stavkalariga muvofiq joydan-joyga ko'chirish haqidagi buyruqlari, 421-shakldagi foydalanilgan ish vaqti hisobi, ish haqini hisoblash tabeli va boshqa hujjatlar. Tabellar tashkilot rahbarining buyrug'i bilan tayinlangan shaxslar tomonidan har oyda belgilangan shaklda yuritiladi. Tabellar butun tashkilot bo'yicha yoki tuzilmaviy bo'linmalar (bo'limlar, bo'linmalar, fakultetlar, laboratoriyalar va boshqalar)ga bo'lingan holda yuritiladi. O'zining oxirida tabel bo'yicha ishlangan kunlarning umumiy miqdori, shuningdek, ortiqcha ishlangan soatlar aniqlanadi. Byudjet tashkilotlarida ish haqi har oyda xodimlar mehnatiga haq to'lash tizimi-vaqtbay, ish natijalariga ko'ra yoki vaqtbay-ishbay bo'lishiga qarab hisoblanadi.

Bunda quyidagi qoidalarga rioya etiladi: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning tegishli farmoniga binoan, 2023-yil 1-dekabrda boshlab byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi 7 foizga oshirildi. Hujjat aholi turmush darajasini yaxshilash va fuqarolar daromadlarini izchil oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'lamini kengaytirish maqsadida qabul qilindi.

2023-yil 1-dekabrda boshlab:

- mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori–1050 ming so'm miqdorida (oldin 980 ming so'm);
- bazaviy hisoblash miqdori–340 ming so'm miqdorida (oldin 330 ming so'm) belgilandi.

Mehnatga haq to'lashni ikkita shakli mavjud: ishbay va vaqtbay. Mehnat haqini hisoblashning ishbay shaklida ish haqi –ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, sifati, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar hajmiga ko'ra asosiy va qo'shimcha ish haqi tarkibi hisoblanadi

### **Xulosa va takliflar.**

Byudjet tashkilotlarida xodimlarning ish haqini hisoblashni avtomatlashtirishni tashkil etish, yuritish va ularning harakatini hisobotlarda aks ettirish bilan bog'liq amaliyotdagi holatlarni kuzatish mumkin.

Byudjet tashkilotlarida «UzASBO» dasturini qo'llashning quyidagi afzalliklarini aytib o'tish mumkin:



- Me'yoriy-huquqiy hujjatlarga kiritiladigan o'zgartirishlar va qo'shimchalar dasturiy majmuada namoyon bo'ladi:

- Foydalanuvchilarning kompyuteri nosoz holatga kelganida ma'lumotlar yo'qolmaydi va foydalanuvchi boshqa kompyuterdan dasturda ishlashda davom ettirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ish haqi miqdorini oshirish to'g'risida"gi farmoni. 17.11.2023 .
2. A.B.Muxametov. B.Matrasulov.G.Turayeva T.:Buxgalteriya hisobi darslik. Ziyo nashr. 2023.-347 b
3. A.B.Muxametov. U.Chorshanboyev. G.Turayeva T.:Boshqaruv hisobi darslik. . Ziyo nashr. 2024.-169 b
4. Turayeva, G., Yusufaliyev, O., Xaydaraliyev, N., Yusupov, N., Oripov, S., & G'aniyev, O. (2023). ASOSIY VOSITALARINI IJARAGA OLISH HISOBI. *Наука и технология в современном мире*, 2(14), 49-52.
5. Gulizahro, T., Abduvali o'g, A. Y. L., & Ibrohim o'g'li, R. A. (2023). MA'LUMOTLARNI TAHLIL QILISHDA STATISTIK JAMLASH VA GURUHLASH USULI. *Нововведения Современного Научного Развития в Эпоху Глобализации: Проблемы и Решения*, 1(6), 144-146.
6. Gulizahro, T., & Zebiniso, R. (2023). KORXONADA ISHLAB CHIQRILADIGAN MAHSULOTLARNING O'RTACHA MIQDORLARI TAHLILI (MEBEL SAVDOSI TAHLILI MISOLIDA). *Нововведения Современного Научного Развития в Эпоху Глобализации: Проблемы и Решения*, 1(6), 178-180.
7. Gulizahro, T., & Ziyodulla, T. (2023). MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH. *Нововведения Современного Научного Развития в Эпоху Глобализации: Проблемы и Решения*, 1(6), 137-139.
8. Turayeva, G., Mullajonov, B., Qurbonbekov, R., To'raqulov, S., Mamadaliyev, U., & Fozilov, S. (2023). BUXGALTERIYA HISOBINING USULLARI VA TAMOYILLARI. *Наука и технология в современном мире*, 2(14), 53-55.
9. Сабирова, Н. Э. (2021). Хоразм дostonчилик мактабларининг локал хусусиятлари. *Academic research in educational sciences*, 2(10), 988-998.
10. Taxirovna, A. S. (2023). EXPLORING LINGUISTIC AND CULTURAL CHARACTERISTICS IN THE TRANSLATION OF STORIES: ENGLISH AND UZBEK PERSPECTIVES. *ENG YAXSHI XIZMATLARI UCHUN*, 1(6), 59-62.
11. Abdurahmanova, M., & Olimova, M. (2022). KORPUS LINGVISTIKASINING AHAMIYATI. *COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS*, 1(1).





12. Abdurahmanova, M., & Olimova, M. (2022, June). TEZAURUSDAGI O 'ZARO BOG 'LANISHLAR. In «УЗБЕКСКИЕ НАЦИОНАЛЬНЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ЗДАНИЯ ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ И ПРАКТИЧЕСКОЕ СОЗДАНИЕ ВОПРОСЫ" Международная научно-практическая конференция (Vol. 1, No. 1).
13. Tursunaliyevna, A. M. (2022). TILSHUNOSLIKDA KOGNITIV YO'NALISHLAR. FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA JURNALI| JOURNAL OF SCIENCE, EDUCATION, CULTURE AND INNOVATION, 1(2), 113-116.
14. Abdurahmanova, M., & Rayimjonova, M. (2021). KORPUS LINGVISTIKASIDA TARJIMASHUNOSLIK MASALASI. COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS, PROSPECTS, 1(1).
15. Tursunaliyevna, A. M. (2022). EKOLINGVISTIKA TILSHUNOSLIKNING YANGI SOHASI SIFATIDA. FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA JURNALI| JOURNAL OF SCIENCE, EDUCATION, CULTURE AND INNOVATION, 1(2), 82-84.
16. Abdurahmanova, M. T. (2023). OMONIMLARNI FARQLASH USULLARINING SUN'IY INTELLEKT VA MASHINA TARJIMASIDAGI O 'RNI. Educational Research in Universal Sciences, 2(4), 241-248.
17. Tursunaliyevna, A. M. (2023, May). OMONIMLAR VA SUN'IY INTELLEKT. In International Congress on Models and methods in Modern Investigations (pp. 48-51).